

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN TEMIR YO‘L IZI VA NAZORATI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Temir yo‘l izi va nazorati fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Temir yo‘l izi va nazorati

1. Temir yo‘l tarkibiy qismlari;
2. Relslar;
3. Relsosti tayanchlari;
4. Ballast va ballast prizmasi;
5. Rels koleyasi tuzilishi va loyihalaniishi;
6. Strelkali o‘tkazgichlar.
7. Temir yo‘l ni bo‘ylama qirqimda to‘g‘rilash;
8. Yo‘l xo‘jaligini yuritish asoslari;
9. Yo‘l ustki qurilmasi elementlarini joriy tasarruf etish.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstuktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Temir yo‘l tarkibiy qismlari	Yo‘lning tarkibiy qismlari, yo‘lni loyihalash va konstruksiyasini tanlashning bosh tamoyillari, yo‘l ustki qismi elementlari, tuproq ko‘tarmasi va unga qo‘yilgan talablar haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.	22,5 %	9
2	Relslar	Relslar vazifasi, ularga qo‘yiladigan talablar va geometrik parametrlari, relslar sifati, relslar uchun material, relslarni ishlab chiqish texnologiyasi, ularni markirovkalash va qabul qilish, relslarni xizmat muddati, relslarga ishlov berish sifatini oshirish va ularning geometrik parametrlarini yaxshilash usullari haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.	5 %	2
3	Relsosti tayanchlari	Relsosti tayanchlari vazifasi va ularga qo‘yiladigan talablar, yog‘och shpalalar va bruslari, yog‘och shpala va bruslarning afzalliklari va kamchiliklari, yog‘och shpala va bruslarning xizmat muddatini uzaytirish, temirbeton shpalalar va bruslar haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.	12,5%	5
4	Ballast va ballast prizmasi	Ballast prizmasining vazifasi, ballast uchun materiallar, ballast prizmasining ko‘ndalang profillari haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.	15%	6
5	Rels koleyasi tuzilishi va loyihalanishi	Harakatlanuvchi sostavning yurish qismlari va koleyasini tuzilishi haqida umumiy ma‘lumotlar, egriliklardagi rels koleyasi, tashqi rels ko‘tarilishini hisoblash, egriliklardagi koleyaga kengligi va kengaytirish me‘yorlari, ichki izdagi kalta relslar, egriliklarda yo‘llar oralig‘ini kengaytirish, yuqori tezlikdagi harakat liniyalari uchun rels koleyasi haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.	15%	6
6	Strelkali o‘tkazgichlar	Strelkali o‘tkazgichlar turlari, markalari, peregon va stansiyalarda strelkali o‘tkazgichlar qo‘llanishi, strelkali o‘tkazgichlar konstruksiyalari, strelkali o‘tkazgichlar nosozliklari haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.	7,5%	3
7	Temir yo‘lni	Temir yollarni joriy tasarruf etish bo‘yicha	5%	2

	bo'ylama qirqimda to'g'rilash	asosiy qoidalar, yo'l ishlarini bajarish texnologiyasi va qoidasi, yo'l ishlarini bajarishda ishlatiladigan asboblari, relslar tirqishlarini butlash va qochirish, temir yo'lni bo'ylama qirqimda to'g'rilash haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.		
8	Yo'l xo'jaligini yuritish asoslari	Yo'l xo'jaligini tashkil etish va boshqarish tizimi, yo'l xo'jaligini yuritish asoslari, temir yo'l va uning inshootlarini pasportizatsiya qilish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	12,5%	5
9	Yo'l ustki qurilmasi elementlarini joriy tasarruf etish	Yo'l ustki qurilmasi elementlarini joriy tasarruf etish, temir yo'l izi, rels, biriktirgich, shpal, to'sin va ballast qatlamini saqlash, yo'l ustki qurilmasi elementlarining kilometrlararo zaxirasi me'yori, relslarni ta'mirlash haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	5%	2

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Djabbarov S.T. "Temir yo'llarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash", «IQTISOD-MOLIYA», 2010;

2. O'zbekiston Respublikasi temir yo'llaridan texnikaviy foydalanish qoidalari - qo'shimcha va o'zgartishlar bilan 2012 yil 02 noyabr holatiga (2001 yil 1 dekabrda o'zdavtemiryo'lnazorat" DI sining 2001 yil 13 avgust 36-son buyrug'i bilan joriy etilgan) mart holatiga;

3. S.X.Xusanov, J.R.Qobulov va b. "Temir yo'l umumiy kursi", Toshkent makon savdo print-2024;

4. A.F.Rasulev, A.N.Ovchinnikov, I.I.Kuznetsov "Temir yo'l izi va nazorati", Toshkent-2018.